

DUNYONING YIRIK MUZEYLARIDA ARXEOLOGIK KOLLEKSIYALARINI TASHKIL ETILISH USULLARI

S.B. Boymirzayev

Alfraganus universiteti

(PhD), katta o'qituvchi

boymirzayevsarvar@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'plab arxeologik eksponatlarga ega Britaniya muzeyi, Luvr, Ermitaj, Rossiya davlat tarix muzeyi, Yevroosiyo madaniyati muzeyi hamda Turindagi sharq san'ati muzeyi kabi dunyoning yirik muzeylarida arxeologik eksponatlarni to'planish masalasi yoritilgan. Ushbu muzeylarda O'zbekiston hududidan olib ketilgan eksponatlar haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Muzey, ashyo, fond, ekspidetsiya, sopol, metall, haykalchalar.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о накоплении археологических экспонатов в крупных музеях мира, таких как Британский музей, Лувр, Эрмитаж, Государственный исторический музей России, Музей восточного искусства в Турин и Музей евразийской культуры. Также обсуждаются экспонаты, вывезенные с территории Узбекистана, которые находятся в этих музеях.

Ключевые слова: музей, предмет, фонд, экспедиция, керамика, металл, статуэтки.

Annotation: This article discusses the issue of the accumulation of archaeological artifacts in major museums around the world, such as the British Museum, the Louvre, the Hermitage, the State Historical Museum of Russia, Museum of Eastern Art in Turin and the Museum of Eurasian Culture. It also

addresses the artifacts taken from the territory of Uzbekistan that are housed in these museums.

Keywords: *Museum, item, collection, expedition, ceramics, metal, figurines.*

Dunyoning yirik muzeylarida tarix va arxeologiya fondlarining tashkil etilishi, arxeologik ashyolarni saqlash, ularni inventarizatsiyadan o'tkazish va ekspozitsiyada namoyish etish bilan bog'liq masalalarni har tomonlama o'rganish zamonaviy muzeyshunoslikning muhim vazifasi hisoblanadi. Muzey arxeologiya fondlarining taddiqi, tarixiy ahamiyati, arxeologik ekspozitsiyani yaratish, fond kolleksiyalarini to'plash, saqlash, ta'mirlash va namoyish etish kabi masalalar muzeylarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Tarix muzeylari insoniyat jamiyatiga taraqqiyotini aks ettiruvchi moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklarini to'plash, saqlash, o'rganish va ommalashtirish bilan shug'ullanuvchi ilmiy muassasalardir. Tarix muzeylarining tashkil etilishi va rivojlanishida arxeologiya bo'limlari alohida ahamiyatga ega ekanligi dunyoning yirik muzeylari ham tasdiqlaydi. Ularda saqlanayotgan bir qator noyob durdonalar O'zbekistonning dunyo badiiy merosiga katta hissa qo'shganligidan darak beradi.

Britaniya muzeyini mamlakat muzey merosining durdonasi deb hisoblash mumkin. Bu dunyodagi eng katta va eng qadimgi muzeylardan biri bo'lib uning ekspozitsiyalari nafaqat Buyuk Britaniyaning tarixi haqida, balki Qadimgi Misr, Rim va Gretsiya, Mesopotamiya, O'rta asr Yevropasiga bag'ishlangan hamda turli davrlarga oid qiziqarli asarlarni o'z ichiga olgan.

Londondagi Britaniya muzeyi¹ 1753-yilda tashkil etilgan [1]. 1759-yilda o'zining birinchi mehmonlarini kutib olishga muvaffaq bo'ldi. Dastlab, muzey shaxsiy kolleksiyalar tufayli tezda kengayib ketdi. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan, kollekcionerlar tomonidan taqdim etilgan hamda sotib

¹ <https://gigafox.ru/uz/rody/soobshchenie-na-temu-britanskii-muzei-kratkaya-istoriya-britanskogo-muzeya/>

 olingan buyumlar natijasida muzey kolleksiyasida hozirda umumiy uzunligi to‘rt kilometrga yaqin 94 xonada joylashgan 7 milliondan ortiq eksponatlarni to‘planishiga sabab bo‘ldi [2]². Muzeyning arxeologiya fondiga 1801-yilda Misrdan mashhur Rosetta toshi keltirildi. XIX asr boshlarida muzeyga ingлиз diplomi Klaudiy Rich kolleksiyasidan qadimiy Teba II Ramzesning ulkan byusti, Afina Parfenoni, Ossuriya va Bobil kabi davlatlarga oid noyob eksponatlar kelib tushdi.

Muzeyga tashrif buyuruvchilarda alohida qiziqish uyg‘otadigan eksponatlar to‘plamlaridan biri – Ahamoniylar davridagi (miloddan avvalgi V asr) oltin va kumushdan yasalgan ajoyib «Oks xazinalari»dir. Ularning miqdori 177 ta oltin va kumushdan ishlangan zargarlik buyumlar, idish-tovoq, qurol bezaklari, odam va turli hayvon shaklidagi haykalchalar majmuasi hamda 1300 dona tilla tangadan iborat edi. O. Dalton tomonidan «Amudaryo xazinasi» deb nomlangan katalog tuzilgan. E.V. Zeymal, E.E. Kuzmina, P.M. Girshman va M.I. Artamonov kabi olimlar ilmiy ishlarida bu buyumlar uzoq yillar davomida yig‘ilganligini, qaysidir diniy ehrom-ziyoratgohda, boy-badavlat odamning xayr-ehsonlari evaziga paydo bo‘lganligini qayd etishgan. Bu buyumlarning ayrimlari Ahamoniylar davri va madaniyatiga tegishli bo‘lsa, boshqalari, Skiflar madaniyati, Markaziy Osiyo va Sibir xalqlari madaniyatiga tegishli degan fiklarni bildirganlar. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasida Arxeologik kolleksiyalarning durdonalari bo‘lgan «Oks xazinasi»ga oid Grifon boshli tilla bilakuzuk, tilla plastinaning mulyaji, tilladan yasalgan ot aravaning rasmi namoyish etilmoqda. Ko‘plab noyob osori-atiqalarning savdogarlar yoki tarixga qiziqmaydigan aholi qatlami qo‘liga tushib qolishi natijasida dunyoning yirik muzeylariga va shaxsiy kolleksionerlarning qo‘lida to‘planishiga asosiy omil bo‘ldi. Bugungi kunda ularni O‘zbekistonga qaytarish imkonи deyarli mavjud emas.



² Barbier F. [Histoire des bibliothèques ; d’Alexandrie aux bibliothèques virtuelles](#) (фп.) — Armand Colin, 2013.
— P. 215. — ISBN 978-2-200-27440-5

Luvr muzeyi (fr. Musée du Louvre, odatda oddiygina Luvr deb ataladi) dunyodagi eng yirik va mashhur san'at muzeylaridan biri hisoblanadi. Birinchi marta muzey 1793-yil 10-avgustda ochildi. Birinchi imperiya davrida u Napoleon muzeyi deb nomlangan.

Luvrning rangtasvir, haykaltaroshlik, gravyuralar, chizmalar, gobelenlar, fil suyagi, chinni, kulolchilik va bronza kolleksiyalarining boyligi va badiiy ahamiyati haqli ravishda dunyodagi eng ko'zga ko'ringan muzeylaridan biri ekanligiga dalolatdir. Ammo Luvr muzeyi dastlab qirolikning kichik kolleksiyasidan vujudga kelgan [3, 47-b]³.

Napoleon urushlari davrida muzeyning birinchi direktori Baron Denonning taklifi bilan Luvr kolleksiyasi harbiy kuboklar bilan to'ldirildi, shu bilan birga Misr va Yaqin Sharqdan arxeologik topilmalar muzeyga keltirildi. XIX-XX asrlarda muzeyning Arxeologiya fondi kolleksiyasi ko'plab xaridlar va sovg'alar natijasida to'ldirildi, eng so'nggilari qatorida Edmund Rotshild kolleksiyasi ham muzeyga meros bo'lib qolgan edi [4]⁴.

Luvrning Arxeologiya tarkibidagi qadimgi Sharq kolleksiyasida Yaqin Sharq va Mesopotamiyaning qadimgi davlatlari hududida yaratilgan 100.000 dan ortiq san'at buyumlari mavjud. Ushbu kolleksiyalar neolit davridan to'islom kirib kelguniga qadar bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Luvrning «Ossuriya muzeyi» 1847-yil 1-mayda ochilgan bo'lib, u o'sha paytda mavjud bo'lgan antik davr bo'limi tarkibida edi. 1881-yilda Arxeologiya fondi Shumer sivilizatsiyasi topilmalari bilan to'ldirildi, bu esa Qadimgi Sharqning alohida bo'lim sifatida tashkil etilishiga olib keldi.

Ermitaj muzeyi. Ermitajga uzoq vaqtadan beri kelgan kolleksiyalarning o'z tarixi bor. Arxeologik kolleksiyaning paydo bo'lishi XIX asrning boshlarida katta qiymat va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan IV asriga oid «knyazlik» dafn

³ Ионина Н. 100 великих музеев мира «ВЕЧЕ», 2009. – С. 47

⁴ [История Лувра на официальном сайте музея](#). Дата обращения: 28 ноября 2012. [Архивировано](#) 28 октября 2020 года.

etilgan oltin va kumush buyumlarning topilmalarni qabul qilinishi bilan boshlandi.

XIX asrning 60-yillariga kelib arxeologik qazishmalarni boshqarish va qadimiy yodgorliklarni o'rganish bo'yicha davlat markazini tashkil etish zarurati paydo bo'ldi. 1859-yilda Imperator arxeologik komissiyasi tuzildi [5]⁵. Arxeologik topilmalar ilmiy ahamiyatiga ko'ra emas, balki ular «Imperator janoblari Ermitajini qay darajada munosib bezashlari» uchun baholangan. Arxeologik obyektlardan topilgan eng yaxshi saqlangan va noyob buyumlar Ermitajga yuborilgan.

«Rus qo'mitasining mablag'lari tashkil etilgan ekspeditsiyalar natijasida topilgan barcha yodgorliklar Imperator Ermitajining o'rta asrlar bo'limiga topshirilsin» [6]⁶ degan qarorning ijrosini ta'minlash uchun rus arxeologlari tomonidan o'lkamizda olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida qo'lga kiritilgan topilmalarning eng noyoblari o'rganish bahonasida olib ketilgan.

XIX asrning 70- 90-yillarida Rossiyada O'rta Osiyo osori-atiqalariga bo'lgan ilmiy qiziqish sezilarli tarzda oshgan. 1884-1885-yillarda mashhur arxeolog N.I. Veselovskiy Arxeologik komissiyasi topshirig'i bilan Turkistonga ilmiy xizmat safari bilan kelgan. U Toshkent okrugi, Farg'onada kichik qazilma ishlarini olib borgan, shuningdek, Zarafshon vodiysidagi aholi punktlarini ko'zdan kechirgan. Uning Samarcanddagi Afrosiyob shaharchasida o'tkazgan tadqiqotlari ancha keng ko'lamli bo'lib, u yerdan islom dini kirib kelgunga qadar kechgan davrga oid bo'lgan qadimiy buyumlar, jumladan, marhumning suyaklari solib saqlanadigan sopol buyum – ostodon topishga muvaffaq bo'lingan.

Ushbu qazilma ishlari mahalliy to'plovchilar bilan qilingan hamkorlik tufayli N.I. Veselovskiy Samarcandning osori-atiqalaridan iborat katta

⁵ <https://oimurschool.ru/uz/biznes/imperatorskaya-arheologicheskaya-komissiya-arheologicheskaya-komissiya/>

⁶ Известия Русского Комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношениях. 1903, №5, С3

kolleksiyani jamlagan [7, 37-b]⁷. Uning qadimiy yodgorliklarini to‘plovchi Mirza Buxoriy bilan hamkorligi juda samarali bo‘lgan va Arxeologiya komissiyasi bu to‘plovchidan bir necha ming qadimiy buyumlar, asosan tangalar, terrakotalar va gemmalar (sirtiga xat yozilgan yoki naqsh tushirilgan qimmatbaho tosh) sotib olgan. Badiiy va ilmiy jihatdan qimmatliroq bo‘lgan buyumlar esa davlat Ermitajiga keltirilgan.

XX asrning 20-yillaridan boshlab Ermitajning Sharq bo‘limi to‘plamiga arxeologiya ishlari davomida qo‘lga kiritilgan ashyolar kelib tusha boshladi. 1935-yilda Ermitaj negizida o‘tkazilgan Eron san’ati va arxeologiyasiga oid III Xalqaro Kongressga bag‘ishlangan yangi ko‘rgazmada Ayrитом frizi namoyish etildi. Ermitaj muzeyining xodimlari O‘rta Osiyoni boshqa hamkor tashkilotlar bilan bir necha marotaba o‘rgangan. Jumladan, 1934-yilda A.Y. Yakuboviskiy O‘zkomstaris bilan Buxoro vohasida, 1939-1940-yillarda Poykent (V.N. Kesaev), Kofirqal'a (I.A. Suxarev), Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasi (XAEE, S.P. Tolstov) va Termiz arxeologik majmua ekspeditsiyasi (TAME, M.E. Masson) Qoratepa buddaviylar ibodatxonasida (1936-1937) olib borilgan qazishma ishlarida ishtirok etgan. Topilgan materiallarning bir qismi Ermitajga olib ketilgan. 1930-1937-yillarda B.N. Kastalskiyning Samarqand hududidan jamlangan katta to‘plami (ostadon, terrakota, gemma va boshqalar) sotib olingan.

1954-yilda Ermitajning Sharq bo‘limida Varaxshadagi Buxorxudotlar saroyining «Qizil xona» tasviriy san’at asarlaridan parchalar o‘rin olgan.

Muzey zallarini bezab turgan, O‘zbekiston hududidagi arxeologik yodgorliklardan topilgan Xorzmshohlar saroyi haykallari, Ayrитомдан topilgan bir nechta noyob topilmalar, jumladan, mashshoqlar tasviri tushirilgan bir guruh gil haykalchalar haqida A.Yu. Yakuboviskiy yozib o‘tgan [8, 20-b]⁸. Shuningdek, 1972-1986-yillarda Surxondaryo viloyatida joylashgan Zartepa

⁷ Ўзбекистон маданий мероси /Давлат Эрмитажи тўплами. Биринчи қисм.– Тошкент: «SILK ROAD MEDIA» – «EAST STAR MEDIA», 2020.– Б. 37.

⁸ Якубовский А.Ю. культура и искусство востока а памятниках Эрмитажа. Вып. 1. Л. 1937. С. 20.

yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalarida Buddaning albasterdan yasalgan boshi, badhisatva haykallari, tangalar, memoriy qismlar, idish-tovoqlar, mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, bronza, terrakota haykalchalari, temir hamda suyakdan yasalgan qurollar, ziravorlar solib qo'yish uchun idishlar topilgan. 2009-yilda Moddiy madaniyat tarixi instituti tomonidan muzeyga taqdim etilgan. Ermitajda Qoratepadan topilgan Buddaviylik haykallari, kapiteliy qismlari, sopol buyumlar, ganchli bezaklar, brahmi, kxoroshti, yunon-baqtriya yozuvlari, tushirilgan idishlar ko'p uchraydi [9, 96-b]⁹.

Afrosiyob yodgorligidan topilgan miloddan avvalgi II-I mingyllikka oid o'qlarning bronza paykonlari, ostadonlar, fil suyagi va metallardan yasalgan shoh qadahlar, sopol buyumlar, ayol shaklidagi hamda mashshoq erkaklar, askarlar tasvirlangan terrakota haykalchalari, yunon kulollari tomonidan yasalgan buyumlarga juda o'xshash bosh tasvirlangan buyumlar – tumorlar, muhr shaklidagi bezaklar bilan bezatilgan tutqichli idishlar, erkak va ayol tasvirlangan medalyonlar; Choch va Munchoqtepadan topilgan mis tangalar, bronza bolta, aholi dafn etilganda u bilan birga qabrga qo'yilgan buyumlar, tilladan yasalgan zargarlik buyumlari hamda ostadonlar; Chust madaniyatiga oid yodgorliklardan ganchkor naqshli sopol idishlar (2692/58 kat.), bronzadan yasalgan buyumlar (2809/1-4 kat.) S.P. Tolstov boshchiligidagi tashkil etilgan Xorazm arxeologiya-etnografik ekspeditsiyasi (XAEE) natijasida Tuproqqa'dan topilgan surat va haykallar, idishlarga tushirilgan yozuv namunalari, turli davr hamda uslubdagi ostadonlar, shuningdek, To'qqal'a epigrafik ostadonlari, tangalar, xorazmliklarning kumush idishlari, Angqaqal'aning musiqa asbobi chalayotgan haykalchalari (CA-7133), Jonbosqal'aning ayol haykalchalari (CA-7117), Qo'rg'oshinqal'aning sher surati tasvirlangan suvdoni o'rin egallagan.

⁹ Ўзбекистон маданий мероси /Давлат Эрмитажи тўплами. Биринчи кисм.– Тошкент: «SILK ROAD MEDIA» – «EAST STAR MEDIA», 2020. – Б. 96.

Rossiya davlat tarix muzeyi (DTM) jahon muzeylari orasida o'ta muhim va yetakchi o'rin egallaydi. 1872-yilda Rossiya milliy muzeyi sifatida tashkil etilgan bu muassasa hozirgi kungacha Rossianing butun tarixini o'zida mujassam etgan yagona muzey bo'lib qolmoqda. Muzey zallarida O'zbekiston tarixi va madaniyatiga oid ashyolar ilk bor 1891-yilda, O'rta Osiyo keng qamrovli ko'rgazmasi ochilgan vaqtida paydo bo'lgan. Tarix muzeyi to'plamining shakllanishida mashhur kolleksioner P.I. Shchukinning katta hissasi bor. U 1905-yil Tarix muzeyiga o'zining 300.000 ga yaqin buyumdan iborat boy to'plamini in'om etgan. P.I. Shchukin to'plami rus yodgorliklaridan tashqari Sharqiy va G'arbiy Yevropaga oid buyumlarni qamrab olgan edi. Bu bilan u turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri g'oyasini yaqqol namoyon qilishga intilgan. Uning «sharqiy» to'plami tarkibida boshqa ashyolar bilan bir qatorda O'zbekistonning yuksak san'atini namoyon qiluvchi arxeologik yodgorliklardan topilgan gazlama namunalari, sopol va metall buyumlar ham bor edi [10, 54-b]¹⁰.

1917-yildagi inqilobdan so'ng muzeydagi O'zbekiston to'plamining amaliy san'atga oid qismi tarixiy-maishiy ekspeditsiyalar hisobiga, arxeologiyaga oid qismi esa, O'zbekiston hududida qazilma ishlari olib borgan ilmiy muassasalar tomonidan muzeyga topshirilgan buyumlar hisobiga sezilarli darajada ko'paygan.

Shuningdek, 1930-1940-yillarda O'zbekistonda (jumladan, O'zbekiston Tarix va arxeologiya institutida) faoliyat ko'rsatgan va qadimgi Xorazm yodgorliklarining ochilishida ishtirok etgan A.I. Terenojkin, shuningdek, S.P. Tolstov, M.A. Itina tomonidan olib borilgan qazilmalar davomida topilgan yodgorliklar hozir Tarix muzeyi to'plamida saqlanadi. Mashhur tarixchi, etnograf, arxeolog, O'rta Osiyo xalqlari tarixi tadqiqotchisi, akademik S.P. Tolstov rahbarlik qilgan SSSR FA Etnografiya instituti (xozirgi RFAning Etnologiya va antropologiya instituti)ning Xorazm arxeologiya-etnografiya

¹⁰ Ўзбекистон маданий мероси / Давлат тарих музейи. – Тошкент, «SILK ROAD MEDIA» – «EAST STAR MEDIA», 2020. – Б. 54.

ekspeditsiyasi tomonidan 1930-yillardan boshlab Amudaryoning quyi qismida ko‘p yillar davomida tadqiqotlar olib borilgan. Olimlar Amudaryoning Oqchadaryo irmog‘ida tosh asri, bronza davri va ilk temir asriga oid qabrtosh va manzilgohlarni topishdi. 1993-yilda bu to‘plamlar Rossiya Fanlar akademiyasi Etnografiya institutidan Tarix muzeyining arxeologiya bo‘limiga saqlash va o‘rganish uchun berilgan.

O‘zbekistondan topilgan arxeologik buyumlarning Yaponiya muzeylariga yetib borishida Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan. Bugungi kunda Yaponianing turli muzeylarida saqlanayotgan O‘zbekistondan topilgan arxeologik buyumlar salmog‘i kengayib bormoqda. Ularning katta qismi Todaydzi ibodatxonasida saqlanayotgan «Syoso» (asosiy boylik, xazina) deb nomlangan imperator xazinasi tarkibiga kiritilgan [11, 94-b]¹¹. Xususan, qirmizi nefritdan ishlangan belbog‘, tilla rang bug‘u tasviri tushirilgan va atrofi gul bargli naqsh bilan bezatilgan kumush lagan, kumush guldonlar, 6 dona shisha idish shular jumlasidandir.

Yevroosiyo madaniyati muzeyi 2003-yilda Yokogoma shahrida Egami Namio (1906-2002) ning to‘plami asosida tashkil etilgan [12, 234-b]¹². Kolleksiya 2500 dan ortiq tarixiy, arxeologik, badiiy va etnologiyaga oid buyumlardan, shuningdek, 25.000 ga yaqin shu turdagি kitob va jurnallardan iborat. Uning tarkibida Baqtriyadan topilgan miloddan avvalgi 2500-2000-yillikka oid Xlorit haykalcha, tosh haykalcha, budhisatva haykalining bosh qismi, arslon ustida o‘tirgan ma’buda ramzi tushirilgan bronza idishlarni uchratish mumkin.

Kioto shahridagi Ryukoku universiteti huzuridagi «Buddizm muzeyi» 2011-yilda ochilgan [13, 246-b]¹³. Muzeyning to‘plami asosan Gandxara haykallaridan tashkil topgan. Gandxara (madaniyatlar kesishadigan joyda joylashgan, hozirgi Simoliy Pokiston) Kushon podshohligining (I-III asrlar) bir

¹¹ Ўзбекистон маданий мероси / Марказий Осиё маданий мероси Япония музейларида. – Тошкент, «SILK ROAD MEDIA» – «EAST STAR MEDIA», 2020. – Б. 94

¹² O‘sma manba. 234 bet.

¹³ O‘sma manba. 246 bet.

qismi bo'lib, aynan u orqali buddizm va budda san'ati qorishiq holda kirib kelgan. U birinchi navbada Buddha, Bodhisatva, haykallarda namoyon bo'ladı.

2008-yilda ochilgan Turindagi sharq san'ati muzeyi (MAO) Italiyadagi Osiyo san'atini tadqiq etish, saqlash va ommalashtirish bilan shug'ullanib kelmoqda. Muzey XVIII asrda qurilgan mashhur shahar saroyi, tarixiy Palatsso Matssonisda joylashgan. MAO kolleksiyasi temuriylar davri peshlavhalarining kamida uchta namunasini o'z ichiga oladi. Guldor panno handasaviy shakllar ichida guldstali naqsh bilan moviy fonda feruza, sariq, qora ranglar bilan bezatilgan to'rtburchak shaklli o'n ikkita peshlavhadan iborat. MAO kolleksiyasida bundan tashqari temuriylarning sopol to'g'ri burchakli maloyika peshlavhalari o'rin egallagan. 1950-yillarda Shalimar tomonidan Buyuk Britaniyada to'plangan kolleksiya sotib olingan bo'lib, u ilk bor 2013-yilda Edinburgda o'tkazilgan ommaviy ko'rgazmada namoyish etilgan. Ushbu kolleksiyada O'zbek badiiy madaniyatining nodir buyumlari ham o'rin egallagan. Bugungi kunda Shalimar kolleksiyasi MAO muzeyida saqlanmoqda. Kolleksiya tarkibiga sakkiz qirrali koshin bo'lagi (XII-XIII asrlar, Samarqand), to'rtburchakli plitkalar, toshtaxtalar, kvadrat shakldagi marmar panno (XIV-XV asrlar Samarqanddagi Go'ri Amirda ishlatilgan frizlar bilan bir xil), Buxorodagi Abdulazizzon madrasasiga oid peshlavha bo'laklari mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytiz joizki, dunyoning yirik tarix muzeylariga tashrif buyuruvchilarda alohida qiziqish uyg'otadigan eksponatlar asosan, arxeologiya fondi ashyolari bo'lib, ularning muzeysiga yetib kelishini arxeologik ekspeditsiyalar, shaxsiy kolleksiyalar va kimoshdi savdolari orqali sotib olish va boshqa bir nechta yo'nalishlarga bo'lish mumkin.

Osiyo va Afrika muzeylarida arxeologik fondlarni tashkil etilishi asosan arxeologik ekspeditsiyalar orqali, Yevropa muzeylarida esa bosqinchilik yurishlari natijasida qo'lga kiritilgan topilmalar orqali amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. ¹ <https://gigafox.ru/uz/rody/soobshchenie-na-temu-britanskii-muzei-kratkaya-istoriya-britanskogo-muzeya/>
2. ¹ [Barbier F. Histoire des bibliothèques ; d'Alexandrie aux bibliothèques virtuelles](#) (фр.) — [Armand Colin](#), 2013. — P. 215. — [ISBN 978-2-200-27440-5](#)
3. ¹ Ионина Н. 100 великих музеев мира «ВЕЧЕ», 2009. – С. 47
4. ¹ [История Лувра на официальном сайте музея.](#) Дата обращения: 28 ноября 2012. [Архивировано](#) 28 октября 2020 года.
5. ¹ <https://oimurschool.ru/uz/biznes/imperatorskaya-arheologicheskaya-komissiya-arheologicheskaya-komissiya/>
6. ¹ Известия Русского Комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношениях. 1903, №5, С3
7. ¹ Ўзбекистон маданий мероси /Давлат Эрмитажи тўплами. Биринчи қисм.— Тошкент: «SILK ROAD MEDIA» – «EAST STAR MEDIA», 2020. – Б. 37.
8. ¹ Якубовский А.Ю. культура и искусство востока а памятниках Эрмитажа. Вып. 1. Л. 1937. С. 20.
9. ¹ Ўзбекистон маданий мероси /Давлат Эрмитажи тўплами. Биринчи қисм.— Тошкент: «SILK ROAD MEDIA» – «EAST STAR MEDIA», 2020. – Б. 96.
10. ¹ Ўзбекистон маданий мероси / Давлат тарих музейи. – Тошкент, «SILK ROAD MEDIA» – «EAST STAR MEDIA», 2020. – Б. 54.
11. ¹ Ўзбекистон маданий мероси / Марказий Осиё маданий мероси Япония музейларида. – Тошкент, «SILK ROAD MEDIA» – «EAST STAR MEDIA», 2020. – Б. 94
12. ¹ O'sha manba. 234 bet.
13. ¹ O'sha manba. 246 bet.
- 14.